



# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqqan boshlagan

№11 (821), 2026-yil 12-iyun

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



## ■ Dolzarb mavzu

# KONSTRUKTORLAR KENGASHI

kelajakka qaratilgan yangi qadamdir!

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida bir yil avval iqtidorli mutaxassislarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, Konstruktorlar kengashi tashkil etilgan edi. Bu tashabbus orqali korxonada ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish, tahlil etish, takomillashtirish, muammo va masalalarni kombinat bo'linmalari bilan birgalikda hal etish, ilg'or yuqori texnologik uskuna va jihozlarni ishlab chiqarishga joriy qilish, konstruktorlar o'rtasida hamkorlik zanjirini yaratish, umuman olganda, konstruktorlik loyiha ishlanmalarni keng ommalashtirish va rivojlantirish maqsad qilingan.



yo'l qo'yish mumkin emas. Bunday hol og'ir va samarasiz oqibatlar, ya'ni, korxonaga ziyon, be-huda mablag'lar sarfi va hokazolarga olib kelishi mumkin. Zero, har qanday chizmani yaratish va ishlab chiqish o'ta murakkab bo'lib, ilm, o'tkir zehni, mulohaza, isbot va tajriba talab etadi. Shu bois, konstruktor mutaxassislar loyihaning texnik asoslarini yaratishi uchun vaqt, mehnat, izlanishlari kerak bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, konstruktorlik ishi g'oyalardan boshlanadi. Mana shu g'oyalar asosida uskuna yoki jihoz chizmasi yaratiladi. Uning aniq asoslar bilan ishlab chiqarishga tayyor holatga, ya'ni, tatbiq etilishgacha bo'lgan vazifani esa bu noyob kasb egalari yaratadi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida muhandis-konstruktorlar ko'pchilikni tashkil etadi va azaldan o'ziga xos konstruktorlik maktabi shakllangan. Ularning keyingi yillarda amalga oshirilgan yirik investitsion loyihalari, korxonalarini modernizatsiyalash jarayonlariga tatbiq etilgan va ayni paytda kombinatda yuqori iqtisodiy samara berayotgan ishlanmalari bunga misol.

Bugun kombinat tizimida Markaziy konstruktorlik byurosi, tarkibiy bo'linmalarda konstruktorlik ishlari bo'limlari faoliyat ko'rsatyapti. Ularda 100 nafardan oshiq malakali konstruktorlik mehnat qilishmoqda. Navoiy mashinasozlik zavodida 35 nafardan ziyod izlanuvchan, kreativ fikrlaydi-

gan konstruktorlar ishlaydi.

Mavzuga qaytadigan bo'lsak, ba'zilar kombinatda bu yo'nalishda ilgirdan maktab shakllangan ekan, unda kengash tuzilishi nega kerak bo'ldi, degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Ma'lumki, har qanday g'oya - o'zaro fikr almashish, takomillashtirish, tajribani o'rtoqlashtirish, bahsmunozaralar orqali tug'iladi.

Konstruktorlar kengashining yig'ilishlari joylarda dala shtabi ko'rinishida texnolog, konstruktor, elektronik, energetik, mexanik bilan birga o'tkazilishi bo'linmadagi mavjud muammolarni birgalikda o'rganish va yechimlar topish imkoniyatini beradi.

Buning uchun esa mutaxassislar ana shunday muloqot maydoni kerak edi. Masalaning yana bir muhim jihati, bo'linmalarimiz geografik jihatdan respublikamizning turli hududlarida joylashganligi, hamkasblar o'rtasida yaqin hamkorlik yo'qligi, jaydari tilda aytganda, ularning "boshini qovushtiradigan" zanjir mavjud emasligi kabi bir necha sabab va omillar kombinatda ushbu kengashni tuzishni taqozo etdi. Bu bilan, Uchquduqdagi konstruktor Marjonbuloqdagi hamkasbini tanishi, tajriba almashishi uchun sharoit yaratildi. Bilasizmi, kengash tuzilishi sabab sifatida ko'p qobiliyatli borligini ko'ryapmiz.

Davomi 2-betda ▶

## ■ Hamkorlik

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining rivojlanishi — mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi hamda raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Sanoat sektori o'zgaruvchan bozor shartlarida faoliyat yuritishi, yangi texnologiyalarga moslashishi va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishi lozim.

# “SHATAKKA OLISH” MEXANIZMI

mahalliy sanoat ishlab chiqarish korxonalarini samarali qo'llab-quvvatlamogda



Keyingi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan "shatakka olish" mexanizmi hududda faoliyat yuritgan bir qator sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari oshishiga turtki bo'ldi.

### HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI

Bundan besh yil avval kombinatning Navoiy mashinasozlik zavodida sanoat yarmarkasi tashkil etilib, unda yirik sanoat korxonasining o'z quvvatlarida ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari va innovatsion g'oyalar asosida hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda import o'rini bosuvchi yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish yuzasidan ko'rgazma bo'lib o'tgan edi. Ushbu ko'rgazmada o'zlashtirilgan, o'zlashtirish

rejalashtirilgan hamda mahalliy korxonalarda o'zlashtirilishi tavsiya etilayotgan import mahsulotlari namoyish etilgan edi. Keyinchalik mahalliy korxonalarini "shatakka olish" mexanizmi doirasida texnologik hamkorlik yanada rivojlandi.

Kombinat tomonidan respublikada birinchilardan bo'lib amaliyotga joriy qilingan mazkur mexanizm doirasida shu kunga qadar hamkor korxonalaridan import o'rini bosuvchi 200 turdan ziyod mahsulotlar xarid amalga oshirildi. Xususan, so'nggi besh yilda ko'plab korxonalarini shatakka olish natijasida yangi turdagi mahsulotlar o'zlashtirilib, kombinat ehtiyojlari uchun 3 trillion so'mlik mahsulotlar xarid qilindi.

Davomi 2-betda ▶

## ■ Mehnat jamoalarida

# QUVVATLAR KENGAYIB, IMKONIYATLAR YUKSALMOQDA

Yurtimiz zamini azaldan boy tabiiy ne'matlarga ega. Ushbu boyliklarni izlab topish, qayta ishlab va xalq farovonligi yo'lida xizmat qildirish esa konchilik hamda metallurgiya sohasi vakillarining fidokorona mehnati bilan chambarchas bog'liq. Oltin tarkibli ma'dan zamin bag'ridan katta mehnat evaziga qazib chiqariladi va undan noyob metall ajratib olinadi.

Qimmatbaho metallarda minglab insonlarning mashaqqatli mehnati, ilmiy izlanishlari va yuksak mas'uliyati mujassam. Mamlakatimizning yirik sanoat korxonalaridan bo'lgan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ nafaqat yurtimiz, balki jahon konchilik sanoatida ham o'z o'rniga ega. Kombinatning 2-gidrometallurgiya zavodi respublikamiz faxri va oltin ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik korxonadir.

Zavodda har bir kun yangi mehnat yutuqlari va natijalari bilan boshlanadi. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan hamda turli millat vakillaridan iborat tajribali mutaxassislarni birlashtirgan korxonada jamoasining birdamligi sababli ishlab chiqarish sur'ati yildan-yilga oshib bormoqda. Yer qaridan olingan ma'dan aynan shu yerda murakkab texnologik jarayonlar orqali qayta ishlanib, yurtimiz iqtisodiyotiga xizmat qilayotgan

qimmatbaho oltiniga aylanadi.

Zamonaviy sanoat majmuasida matonatli, mustahkam irodali, murakkab texnikaviy va muhandislik masalalarini hal etishga qodir fidoyi insonlar, ustozu shogirdlar mehnat qilishadi. Bu yerda tarkibida qimmatbaho metall bo'lgan ma'danni maydalashdan boshlab, undan tayyor mahsulot ajratib olib, oliy sifatli quyma oltin hosil qilishgacha bo'lgan texnologik jarayonlar to'liq amalga oshiriladi. Ma'danni tayyorlash, maydalash, quyultirish, tayyor mahsulotlar, ta'mirlash — mexanika sexlari, zavod markaziy laboratoriyasi va sakkizta yordamchi uchastka ishchi-xizmatchilari, muhandis — texnik xodimlari ana shunday mas'uliyatli va sharaflil vazifani siddiqildan bajarib kelmoqdalar.

So'nggi yillarda zavodda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va texnik yangilanish ishlari natijasida ishlab

chiqarish quvvatlarini sezilarli darajada oshdi. Yangi uskunalarining joriy etilishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi hamda ilg'or tajribalar qo'llanilishi oltin ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga ortib borishiga xizmat qilmoqda. Ishlab chiqarish xizmat qilmoqda. Ishlab chiqarish o'tgan davrida 81 va 82-tegirmon ham ishga tushirildi. Mazkur tegirmonlar to'liq quvvatda ishga tushirilgach, ishlab chiqarish hajmi yanada oshdi va avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, o'tgan yili sorbsiya va regeneratsiya sexlarida qo'shimcha 30 ta sorbsion uskuna, quyultirish sexida 2 ta quyultirgich qurish, 16-nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish, maydalash sexining ikkinchi binosini kengaytirish va sexning ikkinchi navbati loyihasi asosida 33 va 34-tegirmon blogini montaj qilish ishlari olib borildi. Joriy yil yakuniga qadar mazkur tegirmon blogini to'liq quvvatda ishga tushirish rejalashtirilgan. 2025-yil yakuni bo'yicha zavodda 55,6 million tonnadan ortiq ma'dan qayta ishlandi. Bu esa 2023-yilga nisbatan ma'danni qayta ishlash sur'ati 12,7 foizga oshirilganligidan dalolat beradi. Ayni paytda zavodda mavjud 82 ta tegirmonlar yordamida bir

sutka davomida 158 ming tonnagacha ma'dan qayta ishlanmoqda.

Zavodda ishchi-xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, kasbiy malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutaxassislar uchun o'quv kurslari va malaka oshirish dasturlari tashkil etilib, ularning bilim, ko'nikmalari muntazam ravishda oshirib borilmoqda. Mutaxassis kadrlarning ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda. Shuning kunda zavodda uch ming besh yuz nafardan ortiq ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlar hamjihatlikda faoliyat olib borishmoqda. Ana shu birlik va fidoyilik tufayli 2-gidrometallurgiya zavodining kon-metallurgiya sohasidagi mavqei yanada oshmoqda va mustahkamlanmoqda.

2-gidrometallurgiya zavodining ahil jamoasi yurtimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishga munosib hissa qo'shyapti. Zavodda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda jamoaning fidokorona mehnati tufayli kelajakda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yanada oshib, yangi marra-lar zabt etilishiga shubha yo'q.

Aziza IRISOVA.

## ■ Xabar

So'nggi yillarda kombinat tomonidan yangi temir yo'l liniyalarini qurish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, lokomotiv va vagonlar parkini bosqichma-bosqich yangilash bo'yicha olib borilgan ishlar yuk tashish hajmini oshirish hamda transport xarajatlarini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Kon boshqarmalarida magistrat va manyovr teplovozlar hamda yuk vagonlarni yangilash ishlari amalga oshirilmoqda.

# LOKOMOTIV VA VAGONLAR PARKI YANGILANMOQDA

Shimoliy kon boshqarmasida yuk tashish jarayonida 18 ta teplovoz va 514 ta vagonidan foydalanilmoqda. "Qoqpatas va Dovg'istov oltin konlarida ma'dan qazib olish (III navbati)" investitsion loyihasi doirasida 3 ta teplovoz va 60 ta vagon keltirilishi rejalashtirilgan. Yaqinda Temir yo'l transporti boshqarmasiga yangi, yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega magistrat teplovoz va 6 ta o'ziy daruvchi yarim ochiq vagon(dumpkar) olib kelinib, ishga tushirildi.

Soha mutaxassislari ta'kidlashicha, Qozog'istonning "Lokomotiv qurish zavodi" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan zamonaviy teplovoz ta'mirlashning qulayligi, yoqilg'i tejamliligini, uzoq muddat hamda mahalliy iqlim sharoitlariga mos keladigan texnik ko'rsatkichlari bilan temir yo'l transporti bo'yicha talabarga to'liq javob beradi. Vagonlar kombinat ehtiyojidan kelib chiqib, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida Andijon mexanika zavodida tayyorlangan.



## Dolzarb mavzu

KONSTRUKTORLAR  
KENGASHIkelajakka qaratilgan  
yangi qadamdir!

## Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Yaqinda bir faktga ko'zim tushdi. 2018-2025-yillar davomida yosh muhandis hamda mutaxassislarimizning 1432 ta ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida kombinat 586,9 milliard so'mlik iqtisodiy samaradorlikka erishibdi. Misol uchun, "Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi-2025" tanlovining mexanika yo'nalishida ko'plab konstruktor-muhandislarimiz faxrii o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Hattoki, ular orasida nafaqat oliy ma'lumotli, balki o'rta maxsus ma'lumotga ega intiluvchan yoshlarimiz ham bor. Buning barchasi, hech shubhasiz, kombinatning ilmiy potentsiali, innovatsion salohiyati yuqori ekanligidan dalolatdir.

Kombinat rahbariyati o'tgan yili shu yo'nalishda yana bir xayrli ishga qo'l urdi. "NKMK" AJning 2025-yil 19-sentabrdagi 702-sonli buyrug'i bilan Konstruktorlar kengashi tashkil etildi. Natijada, konstruktorlar hamkorligini ta'minlaydigan tizim yaratildi. Kengash tashkil etilishi konstruktorlarimizning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishda yangi qadam bo'ldi. Yaratilgan shart-sharoitlar hech qancha vaqt o'tmasdan, o'z mevasini bera boshladi.

Ushbu buyruq asosida kengash Nizomi, 16 nafardan iborat turli yo'nalishlardagi eng malakali mutaxassislardan iborat kengash a'zolari va taalluqli yo'nalishlar bo'yicha to'qqizta loyihalash guruhlari tarkibi tuzilib, vazifalari belgilab olindi. O'tgan davrda bir necha bor kengash yig'ilishlari o'tkazilib, vazifalar taqsimlandi. Tajribali mutaxassislardan iborat kengash a'zolari har bir loyihani sinchkovlik bilan baholab, konstruktorlik ishlanmalarining kreativligi, ilmiy asosligi, ijtimoiy va ekologik ahamiyati, innovatsion yondashuvi, loyihaning amaliyotga tadqiq etilishini belgilangan mezonlar asosida ko'rib chiqadi, istiqbolliarini saralaydi, taqdirlash va ishlab chiqarishga tavsiya etadi.

Sun'iy intellekt, startaplari, robototexnika, nanotexnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, ilmiy yondashuvlar, tadqiqotlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda chuqur izlanishlar olib borib, kombinatimiz iqtisodiy samaradorligini

oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga o'z hissamizni qo'shamiz. Zero, korxonamizda iqtisodiy samarador bunday loyihalarga talab bugun o'ta yuqori.

Bir so'z bilan aytganda, Konstruktorlar kengashi, bu – shunchaki nomiga tuzilgan oddiy to'garak emas, balki kombinatda iqtidorli muhandis-konstruktorlarni kashf etish, ularning g'oyalarni ro'yobga chiqarish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy kollegial maslahat organidir. Bu yerda izlanuvchan hamkasblarimiz robototexnika, modelsozlik, 3D loyihalash, elektronika va dasturlash kabi yo'nalishlarda nafaqat bilim oladi yoki tajriba oshiradi, balki o'zlarining ilmiy va innovatsion salohiyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ham ega bo'lishadi.

Eng muhimi, yosh konstruktorlarimiz faqatgina

na nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki o'z qo'llari, qobiliyatlarini bilan turli qurilmalar, ilmiy ishlanmalar, ratsionalizatorlik takliflar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, shu davrga qadar ko'plab hamkasblarimiz avtomatlashtirilgan qurilmalar yoki energiya tejovchi loyihalar, detallar yasab, korxonamizga yuqori iqtisodiy foyda keltirayotgani ham haqiqat. Kengash tuzilishining yana bir muhim jihati, yosh konstruktorlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bu sohaga qiziqqanlar iqtidorini to'g'ri yo'naltirishdan iborat.

Mutaxassis sifatida aytishim mumkinki, bunday sharoit va imkoniyatlar kasbdoshlarimizni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, mutaxassislarimizning kasbiy o'sishi, konstruktorlik ish-



lanmalari sifati oshishi, mahalliyashtirilgan va import o'rini bosuvchi mahsulotlar nomenklaturasini ko'paytirish, albatta, pirovardida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Kengashimiz tomonidan istiqbolli, deb topilgan loyiha va konstruktorlik chizmalar mualliflari hamda loyiha ishtirokchilarini o'rnatilgan tartibda rag'batlantirib borish ko'zda tutilgan. Yaqinda mana shundaylardan o'n uch nafari munosib mukofotlandi. Bunday e'tibor, e'tirof va mukofot mutaxassislarimizni yangi g'oyalarga ruhlantirishi, konstruksiya yasashga qiziqqan mutaxassislar eretaga soha taraqqiyotiga xizmat qiladigan yirik loyihalar muallifiga aylanishi tabiiy. Shuningdek, sohani rivojlantirishga mustahkam zamin yarata-

di va yetuk konstruktorlar avlodini tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Nasib bo'lsa, kengashimiz kelgusida o'z vazifasiga kreativ yondashib, zamonaviy konstruktorlik ishlanma va loyihalar, yangi g'oya va yechimlarni yaratish orqali iqtidorli yoshlarni tanlash, tarbiyalash, ularning g'oyalarni yuzaga chiqarish, rag'batlantirib borishni ta'minlaymiz. Bu yo'lda mas'uliyatni chuqur his qilib, astoydil ishlasak, izlansak, oldimizga qo'ygan maqsadlarga albatta erishamiz.

Karimjon ABDULLAYEV,  
"Navoiy KMK" AJ  
Konstruktorlar kengashi raisi.

## Hamkorlik

## “SHATAKKA OLISH” MEXANIZMI

mahalliy sanoat ishlab chiqarish korxonalarini samarali qo'llab-quvvatlashda

## Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Ko'p yillik hamkorlarimiz hisoblangan "Gidro stanko servis" MChJdan kon-shaxta jihozlari va ehtiyot qismlari, "Navpromlitmas" MChJdan kon-shaxta jihozlari, filtrlar, po'lat qotishmalari, "Chilon Lubricants" MChJdan texnik moylar va reagentlar, "Navoiyskiy Elektrodniy Zavod" MChJdan grafitlangan elektrod, "Navoiyelektromont" MChJdan elektrodvigateel va uskunalar, "Evro Prom Lider" MChJdan filtrlovchi matolar, "Carbon-Polymer" MChJdan ftoroplast va polimer mahsulotlari va boshqa shu kabi mahsulotlar xarib qilib kelinmoqda, – deydi "NKMK" AJ bo'lim boshlig'i Ulug'bek Sanaqulov.

2025-yilda shatakka olingan korxonalar tomonidan 783 milliard so'mlik mahsulotlar yetkazib berilib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan qariyb uch barabarga oshgan. Muhimi, shatakka olingan korxonalarimiz iqtisodiy ko'rsatkichlari ham oshib boryapti.

Mazkur mexanizmining samarali natijalaridan yana biri bu, "shatak piramidasini" bo'lib, shatakka olingan korxonalar endi o'zlarini boshqa kichik korxonalarini shatakka olishni boshlashdi. Xususan, bugungi kunda yirik ishlab chiqaruvchilarga aylangan "Gidro stanko servis" hamda "Navpromlitmas" sanoat korxonalarini yaratish uchun kichik korxonalarini shatakka olishdi.

Kombinat importni optimallashtirishda nafaqat o'z quvvatlari, balki mahalliy korxonalar bilan hamkorlik o'rnatish orqali maqsadga erishmoqda.

“NAVPROMLITMASH” –  
ISHONCHLI HAMKOR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatini barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi tegishli qaroriga asosan,

kombinatning kelgusi besh yillikdagi barcha ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha rejalar belgilab berilgan. Xususan, 2026-yilda 1600 turdan ortiq 1,6 trillion so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lsa, 2030-yilga qadar mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2 000 taga, ishlab chiqarish turini 2,5 trillion so'mga yetkazish mo'ljallangan. Navoiy shahrida faoliyat yuritib kelayotgan "Navpromlitmas" korxonasi tomonidan 2025 yilda 220 dan ortiq mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtirildi. "Shatakka olish" mexanizmi bo'yicha kombinat bilan hamkorlikda o'tgan yilda 400 milliard so'mlik ehtiyot qismlar ishlab chiqarildi.

"Navpromlitmas" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori, "Do'stlik" ordeini sohibi Ibrohim Fayziyev katta hayotiy tajribaga ega tadbirkorlardir.

Doimo yangilikka intilish – taraqqiyotning ishonchli yo'lidir. 2007-yilda tashkil etilgan mazkur sanoat korxonasida nostandart uskunalar va butlovchi qismlar, mis va latun quvurlar, cho'yan quyma metall mahsulotlari kabi o'nlab butlovchi qismlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, mas'uliyati cheklangan jamiyatda "Universal Filter" brendi ostida sanoat va avtomobillar uchun havo hamda moy filtrlari tayyorlanmoqda. Bu mahsulotlar import o'rini bosishga xizmat qilmoqda.

Korxonada ishlab chiqarilgan jihozlar va ehtiyot qismlar "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatidan tashqari "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati", "Navoiyuran", "Navoiyazot", "Navoiy issiqlik elektrostansiyasi" kabi yirik sanoat korxonalariga yetkazib berilayotgani uning ishonchli hamkor sifatidagi nufuzini mustahkamlamoqda.

Ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilishning 2022–2026-yil-

larga mo'ljallangan dasturi doirasida amalga oshirilgan loyiha esa korxonada faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur dastur natijasida kabel o'tkazgichlar uchun yiliga 150 ming dona alumini va mis poynaklar, sanoat va avtomobillar uchun 300 ming dona havo hamda moy filtrlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratildi, yiliga 249 milliard so'mlik import o'rini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ldi.

Korxonamizning har tomonlama yuksalishida kombinat rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etdi. Hozir butlovchi qismlarni xorijga ham eksport qilaymiz. 2025-yilda qariyb bir million AQSh dollarlik eksportni amalga oshirgan bo'lsak, joriy yilda bu raqamni 5 million dollarga yetkazishni ko'zda tutganmiz, – deydi Ibrohim Fayziyev.

Bugungi kunda barcha dastgohlar

raqamlashtirilgan mazkur korxonada 380 nafar xodim mehnat qilmoqda. Yosh mutaxassislardan iborat jamoada ularning har bir tashabbusi doimo qo'llab-quvvatlanayapti. Zero, ishlab chiqarish maydonidagi yangi g'oya, yangi tashabbus — kelajakka ishonchli qadamdir.

ISHLAB CHIQARISH VA ILM-FAN  
UYG'UNLIGI

Tadbirkor Ibrohim Fayziyev kabi fidoyi insonlar faoliyati yoshlar uchun ibrat maktabi sanaladi. Bugungi kunda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti va bir qator texnikumlar talaba-o'quvchilari ana shunday insonlarga ergashib, Vatani taraqqiyotiga kamarbasta bo'lmoqdalar. Ta'limning dual tizimi ushbu korxonaga ham kirib kelgan. Amaliyotchi talabalar korxonada ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etishlari bilan kelgusida kafolatlangan ish o'rniga ega bo'lshayapti. Korxonada



O'quv markazida ishchi-xodimlar uchun haftada ikki kun o'quv kurslari tashkil etilmoqda. Yaponiyaning "Mitsubishi" kompaniyasi bilan o'rnatilgan yaqin hamkorlik natijasida zamonaviy o'quv-uslubiy laboratoriya jihozlari keltirilyapti. Endilikda mahsulot turi ko'payishi bilan uning sifati ham yaxshilanadi.

Bugun har sohaga bilimdon, malakali va tajribali kadrlar zarur. Yangi loyihalar ijrosini ta'minlash uchun kelgusida korxonamiz ishlab chiqarish quvvatini ikki baravar, ishchilar sonini ming nafardan oshirishni reja qilganmiz, – deydi korxonaning tijoriy ishlar bo'yicha direktori Sherzod Ahmadjonov.

Ta'lim muassasalari va sanoat korxonalarini o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mazkur bog'lanma sanoat mahsulotlar tannarxini sezilarli darajada kamayishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, "shatakka olish" tizimi mahalliy korxonalarimizning

iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, yangi imkoniyatlar eshigini ochish va mamlakatimizda barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim omil bo'lib, bunda kombinat tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilar qo'llab-quvvatlanmoqda. E'tiborlisi, ushbu korxonalar shatakka olgan kichik korxonalar ham bugun bozorda o'z o'rini topmoqda. "Navpromlitmas" mas'uliyati cheklangan jamiyati Navoiy shahri va Navbahor tumanidagi "Alibaba-2020", "Xitingradiator", "Tio Prom Kompozit", "Aziyametprommash" kabi korxonalarini shatakka olgan. Mazkur tizim o'z o'rinda konstruktorlik va texnologik hujjatlarini ishlab chiqish hamda yangi import o'rini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

Azamat ZARIPOV,  
jurnalist.

■ Mutaxassis maslahati

# E'TIBORSIZLIK BAHOSI QIMMAT: yoxud mehnat muhofazasiga rioya etish umr foydasi



**Bandlik, ishlab chiqarish, rejalar bajarilishi har bir korxonaning asosiy faoliyati hisoblanadi. Uni ta'minlaydigan yagona kuch, bu - ishchi-xodimlardir. Dunyoda hech bir reja yoki foyda inson hayoti va uning salomatligidan ustun emas. So'nggi xalqaro statistikaga nazar tashlasak, har kuni dunyo bo'ylab minglab insonlar ish joyidagi oddiygina e'tiborsizlik oqibatida og'ir jarohat olmoqda, umrbod nogironlikka mahkum bo'lmoqda yoki baxtsiz hodisaga uchramoqda.**

Xo'sh, bizdachi? O'z ish joyimizda xavfsizlik madaniyatiga qanchalik amal qilyapmiz? Mehnat muhofazasi biz uchun shunchaki tekshiruvdan o'tish uchun kerak bo'lgan "qog'ozdagi qoida"mi yoki hayotiy zarurat? Mehnatni muhofaza qilish sohasida achchiq, ammo inkor etib bo'lmaydigan haqiqat bor: texnika xavfsizligi qoidalari qon bilan yozilgan. Korxonalarda yuz beradigan noxush hodisalarning aksariyati texnik nosozlikdan emas, balki insonlardagi e'tiborsizlik, xotirjamlikka berilish, "bir gap bo'lar", "o'n yildan beri shunday ishlayman, hech narsa qilmagan", "menga balo ham urmaydi" qabilida o'ziga haddan tashqari ishonch tufayli sodir bo'ladi. Bu - oxiri fojia bilan tugashi mumkin bo'lgan qaltis qadam hisoblanadi. Xalqimiz: ko'za kunda emas, kunida sinadi, deb bejizga aytishmagan.

Unutmazlik kerakki, baxtsiz hodisa sodir bo'lishi uchun soniyaning mingdan bir ulushi yetarli. Oddiy maxsus kaskani kiyimaslik, himoya ko'zoynagidan foydalanmaslik yoki balandlikda xavfsizlik kamarini taqmaslik, bu - hayotni ataylab xavfga qo'yish demakdir. Zero, texnika va xavf-xatar aslo hazil yoki tavakkalchilikni kechirmaydi.

Buning uchun har bir ishlab chiqarish korxonasida "mas'uliyat tarozisi" bo'lishi kerak. Ya'ni, kim nimaga javobgar, degan. Aslida mehnat muhofazasini ta'minlash, bu - bir-biriga bog'

liq janjirli tizim bo'lib, u ish beruvchi bo'ladimi, xodim bo'ladimi, har biriga alohida majburiyat va mas'uliyat yuklaydi. Qaysidir tomonning e'tiborsizligi bilan ushbu janjirli halqaning uzilishi ayanchli falokat yoki halokatga olib kelishi tabiiy. Bu yerda mas'uliyat va majburiyat ikki tomonga - ish beruvchi va xodimga birdek bo'ladi. Xodim uchun zamonaviy, xavfsiz va qulay ish joyi yaratish, maxsus kiyim-bosh va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash hamda texnik xavfsizlik tizimini doimiy nazorat qilib borish ish beruvchini burchi hisoblanadi.

O'ziga berilgan himoya vositalarini shkafda saqlamasdan ish jarayonida ulardan doimiy foydalanish, ishxonadagi har qanday xavfli holat yoki nosozlikni ko'rganda, "menga nima" demasdan, zudlik bilan rahbariyatga xabar berish xodimning majburiyatiga kiradi.

Bugun barcha ishlab chiqarish korxonalarida butun diqqat-e'tibor xavfsiz ish joyi yaratish, ishchi-xodimlarda mehnat muhofazasi madaniyatini oshirishga qaratilgan. Har bir insonning hayoti, sog'lig'i, avvalo, o'zi, ish beruvchi, oilasi uchun muhimdir. Shuning uchun ham ish joyimizda baxtsiz hodisalar ko'rsatkichini "nol" darajaga tushirish uchun har birimiz quyidagi oddiy, ammo, temir qoidalarga qat'iy amal qilishimiz shart:

Birinchidan, yo'riqnomadan o'tkazishga (instruktaj) rasmiyatchilik yuzasidan emas, balki ish

boshlashdan oldin beriladigan yo'riqnomalarga diqqat va ish jarayonida bu ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish muhimdir. Chunki, xavfsizlik jurnaliga shunchaki imzo qo'yish sizni turli balo-qazodan asray olmaydi. Faqat yo'riqnomaga amal qilish va hushyorlik yomon oqibatlar kelib chiqishidan qutqaradi.

Ikkinchidan, tartib bor joyda bunday oqibatlar kelib chiqmaydi. Shuning uchun ham evakuatsiya yo'laklari, chiqish eshiklari va o't o'chirish vositalari turadigan joylarni turli buyumlar bilan to'sib qo'yish xavflidir. Chunki, yong'in yoki favqu-lodda holatda har bir soniya oltinga teng bo'ladi.

Uchinchidan, hamisha ichki tuyg'ungizga quloq tuting va salomatligingizni asrang! Unutmangki, charchoq, uyqusizlik yoki sog'liqdagi noxushlik diqqatni chalg'ituvchi eng katta xavfdir. Chunki, sezgirlik yo'qolgan joyda xatolar bo'y ko'rsatadi. Yodda tuting: mabodo o'zingizni yomon his qilsangiz, har qanday sharoitda ishini to'xtatib, shifokorga murojaat qiling.

Xulosa o'rinda aytish kerakki, sizni uyda kushiyapti! Har doim ishga o'tlanar ekanisiz, bir lahza ortga o'girilib oilangiz, ko'zlari jovdirab turgan farzandlaringizga boqing! Sizning sog'-salomat, kulib uyga qaytishingiz - ular uchun dunyodagi eng katta baxt va boylikdir. Korxonadagi xavfsizlik qoidalari rioya qilish orqali siz, nafaqat o'z hayotingiz, balki yoningizdagi hamkasbingizning ham noxush holatlardan asrab qolgan bo'lasiz. Zero, ishxonada mehnat muhofazasiga amal qilish, bu - yuksak mas'uliyat va majburiyat, mehnat muhofazasi, bu - doimiy hushyorlik, sog'lik-salomatlik, oilangiz bag'riga qaytishingiz garovidir!

**Farrux RAYIMOV,  
Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi  
bosh boshqarmasi  
Markaziy boshqarmasi "Muruntov" koni  
bo'yicha bo'lim boshlig'i.**

■ Из подразлений комбината

**Гидрометаллургический завод №7 АО «Навоийский ГМК» введён в эксплуатацию в 2021 году и изначально проектировался для переработки 15 млн тонн руды в год. Сегодня предприятие является одним из ключевых звеньев комбината по переработке техногенных отходов и уверенно демонстрирует динамичное развитие, реализуя масштабную программу расширения и технического обновления производства.**



## ГМЗ-7 НАРАЩИВАЕТ МОЩНОСТИ

- Решение об увеличении производственных мощностей было принято руководством Навоийского горно-металлургического комбината в начале 2024 года, - говорит главный технолог завода Рамиль Урманов. - Уже в мае того же года была разработана концепция развития, которая предусматривала поэтапное расширение ключевых производственных участков. С сентября 2024 года начались активные строительные работы: были заложены фундаменты под отделение сушения и цеха измельчения, а также начато строительство дополнительных мельниц...

На сегодняшний день в рамках расширения введены в эксплуатацию 4 мельницы (всего их на заводе 12 единиц), что позволило вывести предприятие на новый уровень производительности: по сравнению с 2024 годом объём производства в 2026 году увеличился на 64%, что является значительным достижением для предприятия.

Также полностью завершены участок рудоподготовки и грохочения, а степень готовности отделения сушения достигла 95%. Практически завершены работы и в отделении сорбции, что свидетельствует о высокой степени реализации намеченных планов.

Решение об увеличении производственных мощностей было принято руководством Навоийского горно-металлургического комбината в начале 2024 года, - говорит главный технолог завода Рамиль Урманов. - Уже в мае того же года была разработана концепция развития, которая предусматривала поэтапное расширение ключевых производственных участков. С сентября 2024 года начались активные строительные работы: были заложены фундаменты под отделение сушения и цеха измельчения, а также начато строительство дополнительных мельниц...

На текущем этапе остаются отдельные задачи по развитию инфраструктуры предприятия. В частности, планируется расширение склада цианистого натрия, здания ремонтно-механического цеха, строительство административно-бытового корпуса (АБК). Эти меры направлены на создание более комфортных и эффективных условий для работы персонала и обслуживания оборудования.

Не менее важным направлением является внедрение технологий повторного использования водных ресурсов. На сегодняшний день завод уже использует около 60% оборотной воды, и дальнейшее развитие этого направления позволит существенно снизить нагрузку на водные ресурсы и повысить экологическую устойчивость производства.

связи с увеличением объёмов переработки была проведена реконструкция, в рамках которой без расширения территории цеха осуществляется установка трёх дополнительных десорберов объёмом по 5 кубических метров каждый. Это решение демонстрирует рациональный подход к использованию существующих площадей и оптимизации производственных процессов.

Отдельного внимания заслуживает внедрение современных цифровых технологий. В планах предприятия — использование искусственного интеллекта для автоматизации технологических процессов в цехе сорбции. Реализация данного проекта позволит повысить точность управления процессами, увеличить степень извлечения металла и снизить влияние человеческого фактора. Предполагается, что работы будут выполняться специализированной компанией, обладающей необходимыми компетенциями в области ИТ-решений.

Таким образом, ГМЗ-7 демонстрирует комплексный подход к развитию: от расширения производственных мощностей и модернизации оборудования до внедрения инновационных технологий и повышения экологической эффективности.

**Насиба ШАМУРАТОВА.**

■ Sport

**Navoiy shahridagi "So'g'diyona" o'yingohida Navoiy kon-metallurgiya kombinati Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadlari xodimlaridan tashkil topgan jamoalar o'rtasida "NKMK" AJ Boshqaruv raisi - Bosh direktori kubogi" uchun sport musobaqasi bo'lib o'tdi. Tadbirda 8 ta jamoa sporting 100 va 3 000 metrga yugurish, turnikka tortilish, amaliy o'q otish turlari hamda maxsus va tibbiy tayyorgarlikka oid test sinovlari asosida o'zaro bellashdi.**



## JANGOVAR TAYYORGARLIK SINOVDAN O'TKAZILDI



- Ushbu musobaqa har bir jamoaning professional mahorati, jangovar tayyorgarligi va birdamligini sinovdan o'tkazdi. Bellashuvlar ishtirokchilarining har biri aniq va qat'iyat bilan harakat qildi, - deydi kombinat Tartibot va qo'riqlash boshqarmasi bo'lim boshlig'i Maksim Bochkaryov.

Turnikda 25 marotaba tortilib, barcha qatnashchilardan yaxshi natija qayd etgan Janubiy kon boshqarmasi Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi nazoratchisi Muzaffar Obloqulov musobaqaning shu yo'nalishida g'olib bo'ldi. 100 metrga yugurish bosqichida 12:41 soniya natija qayd etgan "Qizilqum" kon boshqarmasi Idoraviy

harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi nazoratchisi Adhamjon Nurmurodov g'oliblikni qo'lgan kiritdi. 3000 metrga yugurish bahslarida 10:42 daqiqa natija qayd etgan "Qizilqum" kon boshqarmasi jamoasi a'zosi Muhammadali Rajabov finish chizig'iga birinchi bo'lib yetib keldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoa hisobida "Qizilqum" kon boshqarmasi Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi jamoasi g'oliblikni qo'lgan kiritdi. G'olib jamoaga kubok va qimmatbaho sovg'alar topshirildi, turli nominatsiyalar sohiblari diplomlar bilan taqdirlandi.

**Azamat ZARIPOV.**

■ Turli kasb egalari

## SULOLANING MUNOSIB DAVOMCHISI

**Farzandlar ota-ona kasbining davomchisiga aylansa unga havas qilishadi. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, an'anaga ko'ra har bir inson o'z kasbinin farzandiga o'rgatadi.**



Uchquduqlik Temur Cho'liyev 13 yildan buyon Shimoliy kon boshqarmasi 1-avtokorxonasida haydovchilik qiladi. Uning otasi Nurullo Cho'liyev ham shu korxonada 41 yil mehnat qilib nafaqaga chiqqan.

Temur Cho'liyevlar sulolasini davom ettirayotgan munosib vakil. Uning amakilari Abdulla, G'ayrat akalar ham shu jamoada uzoq yillar mehnat qilishgan.

Temur hali o'quvchilik yillaridayuq otasi boshqaradigan, uzoqqa yuk tashuvchi ulkan mashina kabinasiga o'tirganida kelgusida padaribuzrukvorining kasbini tanlash haqida o'ylardi. Havas esa maqsadga aylandi. Ota ham o'g'lining qaroridan faxrlandi. Temur mustaqil hayotga qadam qo'yganida aynan shunday yo'l tutdi. Kasb sirlarini mukammal egallashini istab Buxoro avtomobil va yo'llar kasb-hunar kollejiga o'qishga kirdi. Avtomobillarning texnik holatini ta'mirlash mutaxassisligini egallagach, ota kasbi -haydovchilikni tanladi. Hayotida kollejda olgan bilimlari har daqiqada qo'l kelyapti. Boshqarayotgan avtomobili ha deganda ustaxonaga olib kirmaydi, iloji bo'lsa o'zi ta'mirlashga harakat qiladi.

Bugungi kunda Shimoliy kon boshqarmasi tarkibidagi 1-avtokorxonada 500 nafardan ortiq haydovchilar mehnat qilishadi. Ularning ko'pchiligi Cho'liyevlar bilan birga ishlagan yoki ularga shogird tushgan kishilar. O'lar sulola vakillarining

halol mehnat qilganliklariga guvoh bo'lishgan. Temur ham mehnati bilan ulardan ortda qolmaslikka, jamoada o'z o'rnini topishga harakat qilyapti.

- Birinchi ustozim otam bo'ladi. Hozir nafaqada bo'lsalarda, har kuni ertalab yo'l qoidalariga rioya qilishimni tayinlaydilar. Dadam uzoq yillar mashinada respublikamizning turli burchaklarida korxonada tovar-moddiy boyliklarni tashiganlar. Men boshqarayotgan yengil mashina esa karyer uchun xizmat qiladi. Transport vositasi qayerda yurmasin, haydovchi qoidalarga rioya qilishi shart. Xavfsizlik uchun tezlikni belgilangan me'yor - soatiga 40-60 kilometrdan oshirmayman. Haydovchilik men uchun ro'zg'or tebratish vositasiga emas. Shu kasb tufayli orzularimga erishganman. Oilada yolg'iz o'g'il bo'lganim uchun otamning kasbimni egalladim. Otam qirg yildan ortiq texnika bilan tillashib, biror marta kasbidan nolimadilar. Aksincha menga va yaqinlariga ham bu kasbga mehr uyg'otdilar, - deydi Temur Cho'liyev shukrona ohangda.

Xalqimizda "Ot o'rini toy bosadi" degan naql bejizga aytilmagan. Temur har kuni ishdan qaytarkan, Nurullo akaga korxonadagi yangiliklardan gapirib beradi, hamkasblarining salomini yetkazadi. Bundan hozirda qarilik gashtining surayotgan otaning ruhiyati tetiklashadi, umri zoye ketmaganligidan xursand bo'ladi.

**Laylo MAHMUDOVA.**

■ Tibbiyot

**Salomatlik – bu inson organizmining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan to'liq sog'lomligini belgilovchi ko'rsatkichlar majmuidir. Asosiy mezonlarga normal qon bosimi, tana harorati, barqaror ruhiyat, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik va yurak urishining me'yorida bo'lishi kiradi.**

# XODIMLAR SALOMATLIGI YO'LIDA



Turmush tarzimiz — tibbiy madaniyatimizning qanchalik darajada ekanligini ochiq-oydin ko'rsatuvchi o'ziga xos ko'zgu. O'z vaqtida o'tkaziladigan tibbiy ko'rik doimo sog'lom bo'lish imkoniyatini yaratadi. O'z salomatligini asragan va mustahkamlangan inson uzoq umr ko'radi. Zamonaviy tibbiyot ko'pgina kasalliklarni davolash imkoniyatiga ega. Kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish osonligini unutmasligimiz kerak. O'z vaqtida tibbiy ko'rikni o'tkazish ko'pgina kasalliklarning og'ir darajalariga o'tib ketishining oldini olish va inson salomatligini saqlashda yordam beradi.

Sog'lom turmush tarzi eng avvalo, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan saqlanish, mehnat qilish va faol dam olish hamda gigiyenik ko'nikmalarga amal qilishdir. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi".

Tibbiy ko'rik — bu shunchaki qon bosimini o'lchash uchun terapevt oldiga nomiga borib-kelish emas. U sog'liqni har tomonlama baholash bo'lib, shifokor bilan suhbat, shikoyatlar va kasallik tarixini o'rganish, jismoniy ko'rik, shuningdek, tahlillar va asbob-uskunalar yordamida diagnostika o'tkazishni o'z ichiga oladi. Maqsad yashirin yoki endigina boshlanayotgan kasalliklarni aniqlash, shuningdek, surunkali kasalliklarning rivojlanish xavfini baholashdir.

Ko'plab kasalliklar, jumladan, yurak-qon tomir, endokrin va onkologik kasalliklar belgilarsiz kechadi. Muntazam tekshiruvlar ularni davolash eng samarali bo'lgan erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Kasallik qanchalik erta aniqlansa, og'ir oqibatlarning oldini olish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Tug'ilgandan boshlab salomatlikni nazorat qilish muhim: chaqaloqlik davrida — patronaj, bolalik davrida — maktab jadvali bo'yicha, 18 yoshdan boshlab esa yiliga kamida bir marta tibbiy ko'rikdan o'tish tavsiya etiladi. Ayniqsa, 40 yoshdan keyin, yurak-qon tomir, onkologik va endokrin kasalliklar xavfi oshganda e'tiborli bo'lish muhim ahamiyatga ega.

"Zafarobod" Tibbiy-sanitariya qismi poliklinikasi bir smenada 150 ta qatnovlarga mo'ljallangan bo'lib, so'nggi rusumdagi exoensefalograf, ko'z kasalliklarini aniqlashda zamonaviy tonometr, oftalmoskop, EKG, ultratovush, raqamli rentgen diagnostika apparatlari, ezofagogastroduodenoskop, LOR kombayn uskunasi, xolter EKG, audiometriya kabi zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta'minlangan. Shu boisdan aholimiz tuman, shahar markazlariga borishlariga ehtiyoj yo'q va ularga shu yerning o'zida tibbiy xizmat ko'rsatib kelinmoqda.

Joriy yilda tibbiy yordam ko'rsatiladigan aholi soni 8095 nafar kishini tashkil

qilyapti. "Navoiyuran"DK hamda "NKMK jamg'armasi" DMning 390 nafardan ortiq tug'ruq yoshidagi xotin-qizlari tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Uch ming nafardan ko'proq ishchi-xodimlar va ularning farzandlari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, aniqlangan kasalliklari bo'yicha nazoratga olinib, sog'lomlashtirilmoqda.

Tibbiy-sanitariya qismimizda aholi salomatligini saqlash, malakali tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Salomatlik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlar ham tibbiyot xodimlari faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish, kon boshqarmasi va jamg'arma xodimlari hamda nafaqadagilarni sog'lom va munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish doimiy etiborimizda bo'lyapti.

"NKMK jamg'armasi" DM, "Navoiyuran" DK ishchi-xodimlari, ularning farzandlari va NKMK nafaqaxo'rlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Hozirgi kunda "Zafarobod" kon boshqarmasi bo'linmalaridagi 12 ta feldsherlik sog'liqni saqlash tibbiy punktlari xodimlari tomonidan ishchi-xodimlar sog'ligi doimiy nazoratga olingan.

Dono xalqimiz "Sog'lik—tuman boylik" deb bejizga aytmagan. Aql- idrok sohibi bo'lgan inson o'z hayotini qadrlashi lozim. Kishilar muntazam sog'lik haqida qanchalik qayg'urishmasin, har vaqt, har qachon batamom salomat bo'lishning iloji yo'q. Biror kishi o'zini har jihatdan "soppa-sog'man" deb hisoblay olmaydi, "mening hech qanday kasalim yo'q", deya baralla ayta olmaydi. Har bir muayyan shaxsning salomatligi birinchi navbatda uning hayot tarziga, turmush tarzi elementlariga ongli yondashishiga bog'liqlidir. Shular bilan bog'liq holda insonlar sog'lom turmush tarzining asosida atrof-muhitda mavjud barcha omillarning organizmga ta'sir etishi mumkinligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi hamda ularning salomatlik uchun foyda keltiradigan jihatlardan samarali foydalana olishi muhim ahamiyatga egadir.

Tibbiy madaniyatni oshirish ko'proq insonning ichki tarbiyasi hamda o'z salomatligiga bo'lgan e'tibordan boshlanadi. Salomatligiga befarq bo'lmagan, uni mustahkamlangan inson sog'lom turmush tarziga mos hayot kechiradi va bedavo xastalıklardan o'zini himoya qila oladi.

Yurtimizda tibbiyot sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida ko'plab yutuqlarga erishilmoqda. Ishchi-xodimlarning sog'lom va munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifamiz bo'lib qolaveradi.

**Abduaziz G'ULOMOV,**  
"Zafarobod" Tibbiy-sanitariya qismi poliklinika mudiri.

**Muharrir:**  
**Nizomiddin SADRIDDINOV**

**Tahririyat manzili:**  
210100.  
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy,  
"NKMK" AJ boshqarmasi  
**Telefonlar:**  
Muharrir: 79 227-74-64.  
Faks: 79 227-75-66

■ Kultúra

# ЯРЧАЙШИЕ ТАЛАНТЫ КЫЗЫЛКУМОВ

**Для любого процветающего государства культурное наследие его народа и развитие у подрастающего поколения любовь к культуре, искусству и просвещению является приоритетным направлением. Сегодня работникам сферы культуры и просвещения уделяется огромное внимание и поддержка, так как именно люди этой профессии прививают любовь к высокому, раскрывают потенциал и талант детей, передают культурное наследие предков и дарят народу праздничное настроение и позитивные эмоции.**

В этот же векторе развития в ногу со временем трудится огромный промышленный гигант Навоинский горно-металлургический комбинат, являясь многонациональным, сплоченным, многотысячным коллективом, поддерживающий и вносящий огромный вклад в экономику страны. На протяжении многих лет в каждом регионе, где имеются заводы и объекты НГМК функционируют дворцы и дома культуры, в которых работают настоящие профессионалы своего дела, а именно в 6 дворцах и домах культуры около 300 специалистов, которые возглавляют более 130 коллективов художественной самодельности для детей и взрослых (ансамбли, хор, оркестры, танцевальные коллективы, кружки изостудии, кружки прикладного искусства, библиотеки). Сегодня во всех этих культ. учреждениях занимается около 3000 детей и более 500 взрослых.

Но главным мотивационным рычагом развития, для каждого дворца культуры и его коллективов является участие в кон-

цертах, которые ежегодно организуются руководством НГМК и Советом профсоюзом НГМК в мае месяце в городе Ташкент. На протяжении последних 7 лет эти концерты проводятся во дворце Профсоюзом РУз. И 2026 год не стал исключением, 1-4 мая лучшие коллективы художественной самодельности НГМК, в количестве 324 человека, выступали перед зрителями столицы и показали на сцене все свое мастерство и талант, а именно коллективы национального, народного и эстрадного танца, вокальное мастерство и чтение стихов, грациозные танцевальные исполнения оркестров, выставки изостудии и центра детского творчества. Два незабываемых дня, два концерта - полные залы зрителей столицы, яркие вспышки света, удивительно красивая музыка, грациозные танцевальные коллективы и певцы с обворожительными голосами вызвали море оваций, приятное удивление и восторг как зрителя, так и всех тех, кто выступал на сцене. И этот незабываемый поток позитивных

эмоций, невероятной красоты зрелища, связь между зрителем и выступающим дарит заряд энергии, вера в прекрасное будущее и вдохновляет работников культуры и участников художественной самодельности на новые шедевры, позволяя идти и творить дальше.

Главная и основная цель поездки и организаций концертов в столице является показать на сколько талантливы жемчужины Кызылкумов, воспитанники культ. учреждений НГМК. Благодаря заботливому и чуткому вниманию руководства АО НГМК, Совету профсоюзом НГМК и ГУ «Фонд НГМК» для участников концерта было организована культурно-просветительская программа. А именно 2 мая в первой половине дня участников поездки ждал незабываемый визит в центр Исламской цивилизации, где каждый от мало до велика испытал гордость и восторг от величия и мощи данного музея, от увиденных экспонатов, от исторических фактов, рассказанных гидом. А 3 мая участников поездки ждал не менее интересный и незабываемый сюрприз, визит в государственный цирк Узбекистана, где зрителя ждали акробаты, жонглеры, клоуны, дрессировщики и живой оркестр. Вся программа на манере пронеслась как мгновение, а радости детей и взрослых не было конца еще долгое время.

И счастливым, радостным моментом поездки в столицу подходил бы конец, если бы еще не одно радостное событие: именно в эти дни в Ташкенте проводились два международных танцевально-инструментальных фестивалей (между-

народные многожанровые фестивали «Калейдоскоп Шахеризады» и «Fortuna Fest Tashkent») в которых принимали участие такие страны как, Таджикистан, Киргизия, Казахстан, Россия, Болгария, Азербайджан и наши коллективы культ. учреждений НГМК. Ансамбль народных танцев «Счастливое детство» (руководитель Е.С.Мингалеева) и оркестр «Нихол» ДК «Фархад» завоевавшие два Гран-при, эстрадно-инструментальный ансамбль «Аллегро» (руководитель А.М.Мостова) и фольклорно-этнографический ансамбль «Дильнаво» (руководитель О.И.Фахридинова) ДК «Олтин водий» получили Гран-при и два первых места. Ансамбль эстрадного и современного танца «Дебют» (руководитель Е.С.Саидова) РУ Нурабад также завоевали Гран-при. Наши самоотверженные и талантливые коллективы вновь доказали, что могут конкурировать не только с коллективами нашей страны, но и мира, и им есть что показать.

Вот таким ярким, эмоционально заряженным и восторженным был визит в столицу нашей страны коллективов художественной самодельности НКМК. И все это благодаря нашим руководителям, которые по истине высоко ценят и всесторонне поддерживают и развивают культуру в подрастающем поколении нашей страны.

**Наргиза ХАМИДОВА,**  
Руководитель группы по организации культурно-спортивной деятельности ГУ «Фонд НГМК»

■ Dolzarb mavzu

# MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH — MUHIM VAZIFA



**Markaziy kon boshqarmasi O'quv markazi kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ixtisoslashgan. Markaz faoliyat ko'rsatayotgan yarim asrdan ko'proq vaqtdan buyon bu maskanda ming-minglab insonlar kasb egasi bo'lishdi.**

Har yili O'quv markazimizda 6 ming nafardan ortiq ishchi-xodimlar kasbiy ta'lim olib, qayta tayyorlanayapti. Ayni paytda markazda mehnat qilayotgan 13 nafar yuqori tajribali ishlab chiqarish ta'limi ustalari va 168 nafar shatdan tashqari o'qituvchilar shogirdlariga kasb sirlarini o'rgatib kelishmoqda. Malakali ishlab chiqarish ustalari hamda muhandislar ishchi va texnik xodimlarga o'z mutaxassisliklari bo'yicha ta'limni yangi innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etmoqdalar. Tajribali ishlab chiqarish ta'limi uchun talabalar Sobir Radjabov, Abdimannon To'rayev, Islom Baxronov haqida shunday fikr bildirish mumkin.

Auditoryalarimiz maxsus jihozlangan bo'lib, o'quv va tarbiyaviy ishlar zamon talabi darajasida olib borilmoqda. Markazda ochiq kon ishlarini tashkil etish va takomillashtirishni ko'zlab, ekskavator, buldozer, burg'ilash, elektrovoz mashinistlari, og'ir yuk tashuvchi avtomobil haydovchisi, portlatuvchi, lahimchilar, gidrometallurgiya zavodlari tegirmon mashinistlari, apparatchilar, elektromontyorlar, texnologik jarayonlar uchun sozlovchi chilingarlar tayyorlanib, ishlab chiqarish zavodlari ta'minlanmoqda. O'quv markazi rejasiga muvofiq, rahbar xodimlarning malakasini oshirish ishlari ham tizimli olib borilmoqda.

Joriy yilda O'quv markazining 212 ta kasb va 137 ta maqsadli yo'naltirilgan kurs-

larida 7184 nafar kadri qayta tayyorlash va malakasini oshirish rejalashtirilgan. Jumladan 4675 nafar ishchi-xodimlar malaka oshiradi, 578 nafar kishilar ikkinchi va ko'shimcha kasbga o'qitiladi, 1431 nafar turli kasb egalari qayta tayyorlanadi. 500 nafar rahbar va mutaxassis xodimlar malakasini oshirish kurslarida o'qitiladi.

O'quv markazi qoshidagi texnik kutubxonada ishchi-xodimlar nazariy bilimlarni oshirishlari uchun yetarli sharoit yaratilgan. Mazkur kutubxona Navoiy kon-metallurgiya kombinati yagona elektron kutubxonasi tizimi tarmog'iga ulangan bo'lib, 26 ming 740 dan ortiq kitob fondiga ega.

O'quv markazimizning texnik kutubxonasi 1967 yilda tashkil etilgan bo'lib, bu yerda kutubxonachi Visola Sadinova faoliyat ko'rsatadi. Kutubxonada ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchi-xodimlar uchun konchilik ishi, metallurgiya, avtomobil va temiryo'li transportiga oid zarur adabiyotlar mavjud. Eng muhimi, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga doir 30 dan ortiq qo'llanmalardan foylanish imkoni bor. NKMK portalida tog'-kon sanoati sohasida barcha ma'lumotlar bo'lgani kabi, O'quv markazimiz kutubxonasida elektron kutubxonasi tashkil etilgan.

**Olim HAYDAROV,**  
MKO O'quv markazi direktorining o'rinbosari.

■ Inson qadri

**Urush boshlanganda Anna juda yosh edi. U maktabga borishga tayyorgarlik ko'rar, onasi qizchasi uchun chiroyli sumka tikib qo'ygandi. Hayot osoyishta kechardi: otasi har kuni ishdan qaytar, onasi qo'shiq xirgoyi qilib uy yumushlarini bajarardi. Kichkina Anna "urush" degan so'zning asl mazmuniga tushunmas, otasining ularga "onangizni xafa qilmanglar", deya tanbeh berishi deb tushunardi.**

# Keksalar doim e'zozda



1941-yilda boshlangan urush uning bolalik tasavvurlarini bir zumda o'zgartirdi. Urushning asl basharasi ochlik, azob-uqubatlilar mehnat va ayriliq ekanini sakkiz yoshli qizaloq juda erta angladi.

Bugun Uchquduq tumani Aytim mahallasida istiqomat qilayotgan Anna Krvenyuk 93 bahorni qarshi oldi. 1933-yilda Rossiyaning Oltoy o'lkasida tug'ilgan onaxonning bolaligi mash'um urush yillariga to'g'ri keldi. U front oldida mehnat o'qildi. Bolalik yillari mamlakatni tiklash, xalqning og'irini yengil qilish bilan o'tdi.

Taqdir uni Uchquduq shahriga boshlab keldi. Anna Ivanovna uzoq yillar Shimoliy kon boshqarmasi geotexnologik koni, Uy-joy komunal boshqarmasi tizimida halol mehnat qildi. Onaxonning ismi daftarda "yolg'iz" deb yozilgan bo'lishi mumkin. Garchand u yolg'iz yashasa-da, mehr va e'tibordan chetda emas. Qo'ni-qo'shnilar, sobiq hamkasblar, shogirdlari uni doimo yo'qlab turishadi.

Konchilar va metallurgiya sanoati xodimlari kuni arafasida onaxonning xonadoni yana fayzga to'ldi. Sobiq hamkasblar va yosh avlod vakillari uning holidan xabar olishdi. Bu, inson qadri, mehnatga hurmat va faxriylarga e'tiborning yorqin namunasidir.

— Uchquduqda kombinat tizimida mehnat qilgan uch mingga yaqin faxriyni birlashtirganmiz. Ulardan har birining holidan xabar olamiz, bayram tadbirlari tashkil etamiz, — deydi O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Navoiy filialining Uchquduq bo'limi faoli Mahfuza Sayidxo'jayeva.

Inson uchun yaxshi joyda mehnat qilish baxt bo'lsa, nafaqaga chiqqandan keyin esa jamoasining e'tiborini his etish yanada yoqimlidir. Bu borada Shimoliy kon boshqarmasi tomonidan xayriy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sohada uzoq yillar mehnat qilgan faxriylar uchun Samarqand shahriga sayohat uyushtirildi, o'ndan ortiq faxriy onaxon va otaxonlarining yubileyleri nishonlandi. Mehnat faxriylari yurtimizning so'lim sihatgohlarida dam olishlari uchun kasaba uyushmasi tomonidan yo'llanmalar taqdim etilyapti.

Anna Ivanovna kabi urush yillarining tirik guvohlari sabr-bardosh, matonat va vatanparvarlik timsolidir. Dahshatli urush ularning bolaligini o'g'irlagan bo'lsa-da, insoniy mehr va hayotga ishonchini tortib oloilmadi. Bugungi tinch va osoyishta kunlar qadriani anglash uchun ana shunday fidoyi insonlarning hayot yo'liga bir nazar tashlashning o'zi kifoya.

**Laylo KARIMOVA.**